20 dan ortiq sakral obyektlarda olib borilgan suv va tuproq tadqiqotlari ham sanitariya-gigiyena holatini yaxshilash hamda suv sifatini muntazam nazorat qilish zarurligini ko‘rsatgan.

Shu sababli Farg‘ona viloyatidagi sakral landshaftlarda ziyoratchilar salomatligini muhofaza qilish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq: sakral obyektlarni pasportlashtirish va inventarizatsiya qilish; ziyoratchilar oqimi yuqori bo‘lgan obyektlarda doimiy tibbiy-sanitariya xizmatlarini tashkil etish; ichimlik suvi manbalarini muntazam laboratoriya nazoratidan o‘tkazish; sanitariya-gigiyena infratuzilmasini takomillashtirish; sakral obyektlarni funksional zonalashtirish; mavsumiy ziyoratgohlarda ko‘chma tibbiy va sanitariya xizmatlarini yo‘lga qo‘yish; har bir sakral obyekt uchun tibbiy-sanitariya yo‘riqnomalarini ishlab chiqish; ziyoratchilar oqimi, sanitariya holati va infratuzilma haqida yagona axborot bazasini yaratish; web-GIS texnologiyalari asosida sakral obyektlarning monitoring tizimini shakllantirish.

Umuman olganda, sakral landshaftlardan xavfsiz va samarali foydalanish ziyoratchilar salomatligini muhofaza qilish, tabiiy va madaniy merosni asrash hamda ziyorat turizmini barqaror rivojlantirishning muhim sharti hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 24-fevraldagi 100-son “Ichki va ziyorat turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 3-oktabrdagi 843-son “Farg‘ona viloyatining turistik salohiyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5326-son Farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4755-son qarori.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3514-son qarori.
6. O‘zbekiston Respublikasida dam olish, kurort-rekreatsion obyektlarni loyihalash va qurishning sanitariya-gigiyenik qoidalari va me’yorlari. SanPiN 0198-06.
7. O‘zbekiston Respublikasida suv obyektlarining ifloslanishining aholi salomatligiga xavfliligini baholash bo‘yicha gigiyenik kriteriyalar. SanPiN 0255-08.
8. O‘zDSt 950:2011. Ichimlik suvi va maishiy maqsadlarda foydalaniladigan suv sifatiga qo‘yiladigan talablar.
9. Farg‘ona viloyatidagi sakral obyektlar bo‘yicha dala tadqiqotlari, kuzatuv va anketa-so‘rovnoma materiallari.

AN’ANAVIY ZIYORAT TURIZMINING TRANSCHEGARAVIY MUAMMOLARI (FARG‘ONA VODIYSI MISOLIDA)

Djo‘raboyeva X.Sh. Farg‘ona davlat universiteti, g.f.f.d. (PhD)
Gmail-x.djuraboyeva75@gmail.com
Adhamjonov Sh.K. Farg‘ona davlat universiteti, talaba
Gmail-petervey005@gmail.com

Annotasiya: *Ushbu maqolada Farg‘ona vodiysidagi transchegaraviy hududlarda shakllangan an'anaviy ziyorat turizmining tarixiy-ekologik ildizlari ochib berilgan. Shuningdek, mazkur imkoniyatlardan foydalanishning bugungi davrdagi rivojlantirish imkoniyatlari va muammolari yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *an'ana, ziyoratgoh, ziyorat turizmi, mozorlar, transchegaraviy hududlar, turizm.*

Turizm iqtisodiyotning strategik tarmog‘i sifatida mamlakat taraqqiyotini ta'minlashda muhim o‘rin tutadi, transport va savdo, qurilish va oziq-ovqat sanoatlari, hunarmandchilik, mehmonxona va boshqa xizmat turlarini rivojlanishiga olib keladi. Turizm sohasi dunyo

iqtisodiyotining eng jadal taraqqiy etayotgan sohalaridan biridan biri bo’lib, Butunjahon turistik tashkiloti (UNWTO) va Butunjahon sayohat va turizm kengashi (WCTT) ma’lumotlariga ko‘ra, 2025 yil davomida turizm sohasidagi ish o‘rinlari soni 350 mln kishiga yetdi.

Keyingi yillarda O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish, uning iqtisodiyotda tutgan o‘rnini barqarorlashtirishga alohida e'tibor qaratilib, keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 5 yanvardagi PF-5611-son Farmoniga 1-ilovasiga muvofiq, 2019-2025 yillarda O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasi, 2021 yil 9 fevralda Prezidentimizning «O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmoni qabul qilindi [1]. 2022 yili Turizm va sport vazirligi negizida Turizm va madaniy meros vazirligi hamda Sportni rivojlantirish vazirligi tashkil etildi. 2025 yili «2025–2026 yillarda sayyohlar oqimini keskin ko‘paytirish va turistik xizmatlar ko‘lamini jadal kengaytirish orqali turizmning iqtisodiyotdagi o‘rni va ahamiyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-87-son Farmoni qabul qilindi.

Bugungi kunda O‘zbekiston Markaziy Osiyo davlatlari bilan yaqin qo‘shnichilik, do‘stlik tamoyillariga tayangan holda, faol va pragmatik siyosat olib bormoqda, mintaqa mamlakatlari o‘rtasidagi siyosiy, savdo-iqtisodiy, transport-logistika hamda madaniy-gumanitar sohalarda hamkorlik aloqalari jadal sur'atlarda rivojlanib bormoqda. Siyosiy aloqalarning faollashuvi iqtisodiy aloqalarning rivojlanishiga, bu esa o‘z navbatida madaniy-turistik munosabatlarning taraqqiyotiga ham zamin yaratadi.

Garchi, zamonaviy turizmning asoschisi ingliz tadbirkori Tomas Kuk (1808-1892) hisoblanib, bu sohaning shakllanishi XIX asrning ikkinchi yarmiga to‘g‘ri kelsada, Markaziy Osiyo mintaqasida ziyorat turizmi ko‘rinishlari «Buyuk Ipak yo‘li» shakllangan davrda paydo bo‘lgan. Markaziy Osiyo mintaqasi savdo karvonlari yo‘llari kesishgan, madaniyatlar va sivilizasiyalar tutashgan chorrahada joylashganligi mintaqada qadimdan ziyoratgohlar rivojlanishiga sabab bo‘ldi [7. 19-b]. Ziyorat yoki diniy turizm bevosita tarixiy-diniy obidalarni ziyorat qilish bilan bog‘liq bo‘lib, «tabiat va uning boyliklarini avaylab asrash ajdodlarimizning zardo‘shtiylikdan tortib, islomgacha bo‘lgan barcha dinlari tomonidan targ‘ib qilingan” [5]. Ziyoratgohlar Markaziy Osiyoda arabcha “mozor” nomi bilan atalib, “sig‘iniladigan muqaddas joy”, “ziyorat joyi” ma'nosini anglatadi. Statistik ma'lumotlarga ko‘ra, mintaqadagi ziyoratgohlarning umumiy soni o‘n mingdan ortiq bo‘lib, birgina Farg‘ona vodiysida mingdan ortiq muqaddas ziyoratgoh bor. Farg‘ona vodiysi ziyoratgohlari haqidagi dastlabki ma'lumotlar X asrdan boshlab musulmon tarixchilarining asarlarida qayd etiladi. Vodiy hududlarida o‘rta asrlarga oid mozorlar deyarli saqlanmagan. Hozirda mavjud muqaddas ziyoratgohlarning asosiy qismi XVIII-XIX asrlarda barpo etilgan [3]. Vodiy ziyoratgohlari haqidagi noyob ma’lumotlarni rus olimlaridan F.Nazarov, A.P.Fedchenko, A.P.Xoroshxin, Sherbina-Kramarenko, Ch.Valixonov, V.I.Kushelevskiy, V.P.Nalivkin, A.F.Middendorf, M.Rojdestvenskiy, V.A.Parfentьev, I.P.Koritov, A.K.Pisarchik, R.Ya.Rassudova, V.L.Ogudin kabilarning asarlarida uchratish mumkin.

N.Abdulaxatovning yozishicha, Farg‘ona vodiysidagi mozorlar asosan, suv havzalari bilan bog‘liq holda shakllangan. Masalan, Satkak ota, Chakka tomar, Chashmai Hazrat Ali, Yigit pirim, Arsif ota, Sovur buloq va boshqalar suv ob'ektlari yaqinida barpo etilgan bo‘lib,

Farg‘ona vodiysining Qirg‘iziston Respublikasi hududida joylashgan [3]. Yu.I.Ahmadaliyevning ta'kidlashicha, “O‘rta Osiyoning quruq iqlim sharoitida bevosita suvliklar bilan bog‘liq bo‘lgan diniy e'tiqodning ko‘rinishi sifatidagi «muqaddas joylar» Farg‘ona vodiysini to‘liq qoplab olgan, deyish mumkin” [4. 151-b]. Tasniflar orasida geografik jihatdan ikki guruhdagi muqaddas joylarni ajratib olish mumkin. Birinchi guruhga suv va boshqa landshaft komponentlari (tog‘, tosh, g‘or, daraxt...)dan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan muqaddas ziyoratgohlar, ikkinchi guruhga esa shahar va qishloqlar hududidagi «ekologik sokin hududlar» (qadimiy mozor, masjid, maqbara, hovuz ...) tashkil etish ehtiyoji yuzasidan vujudga kelgan muqaddas qadamjolar va ziyoratgohlarni kiritish mumkin.

Farg‘ona vodiysida yashovchi dehqonlar hayotida muqaddas ziyoratgohlar bilan bog‘liq qarashlar, odat va udumlarning ahamiyati to‘g‘risida etnograf R.Ya.Rassudovaning tadqiqotlarini alohida ta'kidlash lozim. Ushbu mavzuda muallif birinchi marta o‘z maqolasida sug‘oriladigan dehqonchilik yerlarida suv havzalarining homiy kulьtlari va aholining ularga nisbatan axloqiy munosabati haqida tahliliy yondoshgan. R.Ya.Rassudova [6]. vodiyda joylashgan bunday qadamjolarni darajasiga ko‘ra uch guruhga ajratadi:

Birinchi guruhga Farg‘ona vodiysi periferiyasida joylashgan 7ta qadamjoni - O‘sh, Jalolobod, Kampirovot, Duldulota, Qadamjoy, Shohimardon, Yigitpirim ziyoratgohlari kiritilib, ular Oqbo‘yra, Qoradaryo, Aravon, Shoximardonsoy daryolari havzalarida joylashgan. Vodiy aholisi mazkur yettita ziyoratgohga inson umri davomida kamida yetti marta kelishi shart, deb hisoblagan [6. 97-b].

Ikkinchi guruhga konussimon yoyilmalarning yuqori qismida, sug‘orish kanallarining boshlanish joylarida joylashgan qishloqlardagi qadamjolar kiritilib, ular ko‘proq Xo‘ja, To‘ra, Said kabi diniy ulamolar nomi bilan bog‘liq. Ularga Vodildagi Chinor ota, Xoji ota, Mozortagi, Sariqo‘rg‘ondagi Nursuh va Rishton kanallari boshlanadigan joydagi G‘ovsil A'zam mozori kabi qadamjolar kiritilib, bu ulug‘ zotlar Shohimardon va So‘x suvining «egalari» deb e'tirof etilgan.

Uchinchi guruhga esa sug‘orish kanallarining etaklaridagi, chashma va buloqlar yordamida sug‘oriladigan (xokob usulida) hududlardagi qadamjolar Xonqiz, Chimyon, Arsif, Fayziobod, Yormazor, Satkak kiritilgan. Umuman, Vodiyning atrofidagi daryo havzalarida 40 dan ortiq «muqaddas ziyoratgoh»lar borligini ko‘rish mumkin.

Tadqiqotchi V.L.Ogudin o‘z ishlarida ekologiyaga oid muammolarni bartaraf etishda muqaddas ziyoratgohlaraning o‘ziga xos funksiyalariga e'tibor qaratadi. Uning tadqiqotlarida Farg‘ona vodiysidagi etnoslarning shakllanishida va ularning turmush tarzida muqaddas ziyoratgohlarning o‘ziga xos roli va uni vodiy xalqlarining tabiatdan foydalanish madaniyatiga ko‘rsatgan ta'siri xususida fikr yuritiladi.

Farg‘ona vodiysida joylashgan ziyoratgohlarning geografik o‘rniga nazar tashlasak, hozirgi kunda ularning asosiy qismi vodiyning tog‘li hududlarida joylashgan bo‘lib, transchegaraviy maqomga ega. Bu hududlarda ziyoratchilar oqimi O‘zbekistonda shakllanib, Qirg‘iziston Respublikasiga ziyorat uchun boriladi. Tarixan shakllangan an'anaga muvofiq, birinchi guruhga kiruvchi ziyoratgohlarga vodiyning musulmon aholisi xayoti davomida yetti marta borishi zarurligi uqtiriladi. Ikkinchi guruhga kiruvchi ziyoratgohlarga esa vodiyning dexqonchilik bilan shug‘ullanuvchi aholisi har bahor oylarida borishi zarurligi, shundagina

ushbu yilda suv serob bo‘lib, risqi-ro‘zlari ziyoda bo‘lishi yuz yillar davomida ta'kidlangan. Afsuski bu an'analarni vodiy aholisi oxirgi yillarda unuta boshladi.

Yuqoridagi an'analarni tiklash va ularni ziyorat turizmi shaklida innavasion g‘oyalar bilan rivojlantirishni kamida uchta yo‘nalishdagi ahamiyatiga e'tibor berish zarur. Birinchidan, turizmning bu turi bir daryo havzasida yashaydigan xalqlarni o‘zaro hamjihatligini ta'minlaydi. Bu xalqlar bir hududda yashovchi, bir daryodan suv ichuvchi, qardosh, dindosh xalqlar ekanliklarini yosh avlodlar ongiga singdirib boradi. Keyingi yillarda kuzatilayotgan millatlararo nizolarni oldini oladi.

Ikkinchidan, daryo havzasining yuqori qismida yashovchi aholining iqtisodiy turmush sharoitini yaxshilashga imkon yaratadi. Qadimda bu ziyoratgohlarda daraxt kesish, hayvonot dunyosiga zarar yetkazish, ayrim joylarda yerlarni haydash ta'qiqlangan. Aholining anchagina qismi daryoning quyi qismidagi dehqonchilik bilan shug‘ullanuvchilar tomonidan olib kelingan xayr-ehson, nazr-niyoz va ziyoratchilarga xizmat ko‘rsatish hisobiga yashagan. Yangicha yondashuv bo‘yicha qaralsa, aholining asosiy qismi xizmat ko‘rsatish (servis) sohasida band bo‘lgan.

Uchinchidan, tog‘li joylarda yashagan aholi xizmat ko‘rsatish (servis) sohasida bandligi uchun, ular tabiatga ortiqcha aralashishga ehtiyoj sezmagan. Natijada, tog‘li hududlarning suv va namlikni saqlab, daryo rejimini tartibga solishdagi ekologik funksiyasiga zarar yetmagan. Mazkur hududlar tabiatni muhofaza qilish va rekreasiya maqsadlari uchun (muqaddas ziyoratgohlar, qadamjolar ko‘rinishida) ajratilgan. Tabiatni asrashda diniy-huquqiy odatlar va rasm-rusumlardan keng foydalanilgan.

Mazkur holatlarni e'tiborga olib, ziyorat turizmining transchegaraviy masalalari tezroq, hukumatlar darajasida xal etilishi va bu jarayonda yuqoridagi tarixiy an'analardan foydalanish hamda ziyorat turizimining yangi davlatlararo marshrutlarini ishlab chiqish kutilgan natijani beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ўзбекистон Республикасида ички ва зиёрат туризмини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида/ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 09.02.2021 йилдаги ПФ-6165-сон Фармони.
2. “Ўзбекистон 2030” стратегияси тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Президентининг 23.09.2023 йилдаги ПФ-158-сон Фармони.
3. Абдулахатов Н. “Фарғона водийси аҳолиси турмуш тарзида зиёратнинг ўрни (Фарғона вилояти зиёратгоҳлари материаллари асосида)/ тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. Тошкент – 2008, 42-б.
4. Аҳмадалиев Ю. И., Комилова Н. Ў. Этноэкологик маданиятнинг ҳудудий жиҳатлари. – 2020.
5. Жўрабоева Ҳ., Махкамов Э. Табиий ресурслардан оқилона фойдаланишнинг тарихий-экологик жиҳатлари//Ўзбекистон география жамияти IX-съезди материаллари, Т.: 2014. Б.158-159.
6. Рассудова Р.Я., Культовые объекты Ферганы как источник по истории орошаемого земледелия. // Сов.Этнография. -Москва, 1985.№4 - С.96-104.
7. Тухлиев И.С. Туризм асослари: Ўқув қўлланма – С.: СамИСИ, 2008- 226 б.